

## EFEMER VA EFEMEROIDLARNING BIOMASSASINING BOQILISH TA`SIRI OSTIDA O`ZGARISHI

**Boboqandov Nodirjon Fazliddin o`g`li**

Toshkent davlat agrar Universiteti Samarqand filiali assistent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7628713>

Annotatsiya. Navoiy viloyati Konimex tumanida joylashgan Qizilqum hududida amalga oshirildi. Tadqiqotlarni amalga oshirishda Qizilqum cho`l yaylovlari uchun tipik bo`lgan sug`orish qudug`lari tadqiqot maydonlari sifatida tanlandi va gradient tahlil qilindi. Bunga ko`ra quduqdan uzoqlashish gradienti bo`yicha efemer va efemeroidlarning biomassasi sezilarli darajada o`zgardi.


Kalit so`zlar: qumli cho`l, biomassa, fitotsenoz, suksessiya, assotsiatsiya, o`simlik qoplami.

Markaziy Qizilqum yaylovlarining bunday boy imkoniyatlaridan aholini nooqilona foydalanishi – yaylovlarda chorva mollarini haddan tashqari joylashtirilishi, ular bosh sonining keskin oshib ketishi va aholi manzillari atrofida ularni tinimsiz boqilishi yaylovlar sifatini pasayishiga sabab bo`lmoqda.

Qumli cho`l yaylovlari boshqa tipdagi qurg`oqchil yaylovlarga nisbatan tashqi ta`sirlarga birmuncha zaif va tez o`zgarishlarga moyil ekotizim sanaladi.

Bugungi kunda respublikamiz cho`l yaylovlarining deyarli 50-70 foizi turli darajada inqirozga uchragan va hosildorligi 21 foizgacha kamaygan.


Yuqoridagi fitosenotik ko`rsatkichlar I.I. Granitov tahriri ostida chop qilingan O`zbekiston yaylovlarini geobotanik tavsiflash qo`llanmasida tavsiya qilingan metodlardan foydalanib aniqlandi. Fitotsenozlarning suksessia yoki almashinuv modeli M. Westoby et al.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududning O'zbekistondagi joylashuv o'ri.

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqot maydonimizda shuvoq-efemerli o'simliklar qoplami quyi yarusining shakillanishida hamda ularning miqdoriy o'zgarishida boqilishning bevosita ta'siriga nisbatan bilvosita ta'siri asosiy ro'l o'ynaydi (1-rasm). Boqilishning bilvosita ta'siri ayniqsa efemeroidlarning gradientlar bo'yicha sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi. Bilvosita tasir tuproq fizikaviy sharoitining mol tuyoqlari tomonidan o'zgartirilishi orqali ro'y beradi. Mazkur bilvosita ta'sir darajasi esa tadqiqot maydonlari tuproq sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Bahorgi natijalarga ko'ra, efemer va efemeroidlarning biomassasi qolgan gradientlarga nisbatan birinchi gradientda ko'proq ekanligi ham aniqlandi. Efemer va efemeroidlarda esa quduqdan uzoqlashish gradient bo'yicha massasi kamayib borganligi aniqlandi. Boqilish bosimi ortgan maydonlarda efemerlar yuqori biomassa berishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Efemer va efemeroidlarning biomassa dinamikasi.

Jadvalda berilganlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, o'simliklar jamoasining biomassasi ham boqilish darajasi ortishiga qarab kamayib borganligi kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar ayniqsa bahor va kuz mavsumlarida sezilarli darajada farq qilishi kuzatishlar natijasida aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахимова Т. “Кўкча” яйловларининг ҳозирги ҳолати //Чўл яйловлари ҳозирги ҳолатини ривожлантириш ва чўлланишнинг олдини олишнинг



илмий-амалий асослари. Халқаро илмий-амалий конференцияси. – Самарқанд. 2019. -Б. 334-338.

2. Toderich, K. N., Shuyskaya, E. V., Rajabov, T. F., Ismail, S., Shaumarov, M., Yoshiko, K., & Li, E. V. (2013). Uzbekistan: Rehabilitation of desert rangelands affected by salinity, to improve food security, combat desertification and maintain the natural resource base. *Combating Desertification in Asia, Africa and the Middle East: Proven practices*, 249-278.

3. Shuyskaya, E., Rajabov, T., Matsuo, N., Toderich, K., Gismatullina, L., Voronin, P., & Yamanaka, N. (2012). Seasonal dynamics of Asiatic desert C 3/C 4 species related to landscape planning and rehabilitation of salt affected lands. *Journal of Arid Land Studies*, 22(1), 77-82.

4. Гранитов И.И. Растительный покров Юго- Западного Кызылкума. В 2-х т.- Ташкент: Фан, 1964. Т. 1. -335с.

5. Westoby M., Walker B., Noy-Meir I. Opportunistic management for rangelands not at equilibrium // *Journal of Range Management*. 1989. - №42 – P. 266-274.

6. Mamatkulovna, V. A., Sultonovich, B. K., Abdusalomovna, J. F., Tagirovna, M. Z., & Fazliddinova, B. M. (2021). Nematodofauna of Retain Plants and Their Seasonal Dynamics. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5455-5462.

7. Akhmedov, A. K., Nomozova, Z. B., Hasanov, M. A., & Rasulova, Z. A. (2022). Flower Biology Of *Lagochilus Gypsaceus* Under The Conditions Of The Nuratin Ridge. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO*, 1531-1536.

8. Ташпулатов, Й. Ш., & Кобулова, Б. Б. (2019). Экологический анализ альгофлоры среднего течения реки Зарафшан. *Вестник Удмуртского университета. Серия «Биология. Науки о Земле»*, 29(2), 199-205.

